

GEOSIYOSIY MAQSADLARDA AXBOROTLARDAN FOYDALANISH VA XALQARO HUQUQ DOIRASIDA AXBOROT URUSHLARIGA MUNOSABATLAR

*Muallif: Zaidov Azizbek
Avazbekovich,
O'zbekiston Respublikasi
Jamoat xavfsizligi universiteti
magistratura tinglovchisi,
podpolkovnik.*

Annotatsiya

Mazkur maqolada zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida axborotning geosiyosiy resurs sifatida tutgan o'rnini ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Axborot urushlarining mohiyati, shakllari, amaliy ko'rinishlari hamda ularning davlatlar milliy xavfsizligiga ta'siri ochib berilgan. Shuningdek, xalqaro huquq doirasida axborot urushlarini tartibga solishga qaratilgan mavjud me'yorlar, BMT hujjatlari va "Tallinn qo'llanmasi" asosida huquqiy yondashuvlar ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari axborot xavfsizligini ta'minlash va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: geosiyosat, axborot urushi, dezinformatsiya, kiberxavfsizlik, xalqaro huquq, milliy xavfsizlik.

Аннотация

В статье с научной точки зрения анализируется роль информации как геополитического ресурса в системе современных международных отношений. Раскрываются сущность, формы и практические проявления информационных войн, а также их влияние на национальную безопасность государств. Особое внимание уделено международно-правовым подходам к регулированию информационных войн в рамках документов ООН и «Таллиннского руководства». Результаты исследования подчеркивают необходимость

укрепления информационной безопасности и развития международного сотрудничества.

Ключевые слова: геополитика, информационная война, дезинформация, кибербезопасность, международное право, национальная безопасность.

Abstract

This article provides a scholarly analysis of information as a key geopolitical resource in the system of contemporary international relations. The essence, forms, and practical manifestations of information warfare, as well as their impact on national security, are examined. Particular attention is paid to international legal approaches to the regulation of information warfare within the framework of United Nations documents and the Tallinn Manual. The findings emphasize the importance of strengthening information security and enhancing international cooperation.

Keywords: geopolitics, information warfare, disinformation, cybersecurity, international law, national security.

Kirish

XXI asrda axborot global geosiyosiy raqobatning asosiy resurslaridan biriga aylandi. Davlatlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarda harbiy kuch bilan bir qatorda axborot, kommunikatsiya va raqamli texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, axborot urushlari, dezinformatsiya, psixologik ta'sir, kiberhujumlar kabi vositalar geosiyosiy maqsadlarga erishishda samarali instrument sifatida qo'llanilmoqda. Mazkur ilmiy maqolada geosiyosiy maqsadlarda axborotlardan foydalanish mohiyati, shakllari, zamonaviy misollari hamda xalqaro huquq doirasida axborot urushlariga nisbatan mavjud yondashuvlar tahlil qilinadi.

Axborot — voqelik, jarayon yoki hodisalar haqidagi ma'lumotlar majmui bo'lib, geosiyosiy maqsadlarda **quyidagi vazifalarni bajaradi:**

- davlat imidjini shakllantirish;
- tashqi va ichki siyosatni qo'llab-quvvatlash;
- raqib davlatlarning qaror qabul qilish jarayoniga ta'sir ko'rsatish;
- jamoatchilik fikrini boshqarish va boshqalar.

XX asr oxiri — XXI asr boshlarida internet, sun'iy yo'ldosh aloqasi va ijtimoiy tarmoqlar rivoji axborotning ta'sir doirasini keskin kengaytirdi.

Masalan, 2007 yilda aprel oyida Estoniya hukumati “Bronza askar” (*Ikkinchi jahon urushi davridagi sovet askariga bag'ishlangan yodgorlik*) yodgorligini ko'chirishga qaror qildi. Bu hodisa esa tarixiy xotira va mafkuraviy masala sifatida talqin qilinib, Rossiya va rusiyzabon auditoriyaga yo'naltirilgan OAV hamda onlayn platformalarda Estoniya hukumati “tarixni buzayotgan”, “fashizmni oqlayotgan” davlat sifatida tasvirlandi. Bu o'z navbatida, mamlakat ichida norozilik kayfiyatining oshishiga hamda Estoniya va Rossiya o'rtasida siyosiy keskinlikning vujudga kelishiga sabab bo'lish bilan birgalikda, Estoniyaga qarshi tarixda ilk bor keng ko'lamli siyosiy motivatsiyalangan kiberhujumlar amalga oshirildi.

- Hukumat saytlarining ishlashi izdan chiqdi;
- Bank tizimlari va OAV saytlariga hujumlar uyushtirildi;
- Davlat boshqaruvi va moliyaviy axborot infratuzilmasiga jiddiy zarar yetkazildi.

Geosiyosiy maqsadlarda axborotning qo'llanish shakllari quyidagilardir:

Axborot-targ'ibot (propaganda) orqali muayyan g'oya, qadriyat yoki siyosiy pozitsiyani omma ongiga singdirish orqali ayrim rivojlangan (gegemon) Davlatlar xalqaro OAV, televideniye, internet portallar yordamida o'z tashqi siyosiy manfaatlarini ilgari suradi.

Dezinformatsiya va feyk yangiliklar orqali ataylab yolg'on yoki chalg'ituvchi ma'lumot tarqatilib, turli harbiy mojarolar davomida feyk videolar, tahrir qilingan suratlar orqali raqib tomonni siyosiy jihatdan zaiflashtirish holatlari kuzatiladi.

Psixologik operatsiyalar orqali aholi ruhiyatiga bosim o'tkazish, qo'rquv, ishonchsizlik yoki norozilik kayfiyatini kuchaytirishga qaratilgan bo'lib, bu usul harbiy harakatlarsiz davlat barqarorligiga jiddiy xavf solishi mumkin.

Kiber axborot ta'siri (kiberhujumlar) orqali davlat axborot infratuzilmasiga zarar yetkazish, ma'lumotlarni o'g'irlash yoki buzish zamonaviy axborot urushlarining muhim qismiga aylandi.

Zamonaviy geosiyosiy mojarolarda axborot urushlarining qo'llanishi

Ukrainadagi harbiy mojarolar, Yaqin Sharqdagi ziddiyatlar, shuningdek, yirik davlatlar o'rtasidagi raqobatlarida faol olib borilmoqda. Turli xalqaro OAV va ijtimoiy tarmoqlarda qarama-qarshi axborot oqimlari paydo bo'lib, jahon jamoatchiligining voqealarga munosabatini shakllantirmoqda.

Xalqaro huquq tizimi an'anaviy ravishda qurolli mojarolarni tartibga solishga qaratilgan, ammo axborot urushlari masalasida aniq va yagona me'yorlar hali to'liq shakllanmagan.

BMT tomonidan qabul qilingan Nizomda davlatlar suvereniteti, ularning ichki ishlariga aralashmaslik kabi tamoyillar belgilab o'tilgan bo'lib, axborot orqali boshqa davlatning ichki siyosiy jarayonlariga ta'sir ko'rsatish ushbu tamoyillarga zid deb baholanadi.

Kiberhujumlar, kiberurush va axborot makonidagi mojaro sharoitida xalqaro huquq qanday ishlashini tushuntirib beruvchi "Tallinn qo'llanmasi" (Estoniya poytaxti Tallinn shahrida joylashgan NATO Kiberxavfsizlik bo'yicha Mukammallik Markazi (CCDCOE) tashabbusi bilan) bir qator ekspert va mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, zamonaviy axborot va kiber mojaro sharoitida davlatlarning huquq va majburiyatlarini aniqlashtirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda har bir Davlat jahon axborot makonida, o'z axborot suvereniteti va xavfsizligini himoya qilishga intilmoqda. Milliy axborot xavfsizligi konsepsiyalari, mediasavodxonlikni oshirish, kiberxavfsizlik tizimlarini rivojlantirish kabi davlat darajasidagi strategiyalar shu maqsadga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi ham global axborot makonining faol ishtirokchisi sifatida axborot xavfsizligiga alohida e'tibor qaratmoqda. Milliy qonunchiligimizda axborotlashtirish, kiberxavfsizlik va ommaviy axborot vositalari faoliyatini tartibga soluvchi bir qator normalar qabul qilinib, bugungi jadal globallashuv jarayonida hayotimizga keng miqyosda targ'ib qilib kelinmoqda.

Xulosa

Bugungi kunda, geosiyosiy maqsadlarda axborotlardan foydalanish zamonaviy xalqaro munosabatlarning ajralmas qismiga aylanib qolgani, axborot urushlari - harbiy mojarolardan kam bo'lmagan darajada xavf tug'dirmoqda. Xalqaro huquqda bu sohani tartibga solishga oid yagona va majburiy normalarning yetishmasligi davlatlar oldida yangi muammolarni keltirib chiqargani bois, xalqaro hamjamiyat axborot makonida mas'uliyatli xulq-atvor qoidalarini ishlab chiqishi, davlatlar esa milliy axborot xavfsizligini mustahkamlashi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. BMT Nizomi.
2. Tallinn qo'llanmasi (Tallinn Manual).
3. Castells M. The Information Age: Economy, Society and Culture.
4. Nye J. Soft Power. 5
5. Xalqaro munosabatlar va axborot xavfsizligi bo'yicha ilmiy maqolalar to'plami.